FINANCIAL AND ECONOMIC SUSTAINABILITY

NATIJAVIYLIKKA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SAMARALI AMAL QILISH SHARTLARI

Allakuliyev Akmal Baltayevich

PhD., Professor v.b., Toshkent Kimyo xalqaro universiteti rektori

https://doi.org/10.5281/zenodo.23264045

Annotatsiya. Maqolada natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishning (NYB) ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati davlat moliyasi, «prinsipal–agent» va jamoat qiymati konsepsiyalari asosida tadqiq etilgan. Budjet islohotlari evolyutsiyasi hamda IHTTning 2018 va 2023-yillardagi so‘rov natijalari qiyosiy tahlil qilingan. NYBning mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, uning samarali faoliyat yuritishini belgilovchi o‘nta shart uch pog‘onali institutsional tizimda umumlashtirilgan. Natijalar O‘zbekistonda dasturiy budjetlashtirishni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish, dasturiy budjetlashtirish, natijalar zanjiri, allokativ samaradorlik, fiskal intizom, institutsional hisobdorlik.

Аннотация. В статье исследована социально-экономическая сущность бюджетирования, ориентированного на результат (БОР), на основе теории государственных финансов, модели «принципал–агент» и концепции общественной ценности. Проведён сравнительный анализ эволюции бюджетных реформ и результатов опросов ОЭСР за 2018 и 2023 годы. Предложено авторское определение БОР; десять условий его эффективного функционирования объединены в трёхуровневую институциональную

модель. Показаны перспективы применения результатов при переходе Узбекистана к программному бюджетированию.

Ключевые слова: бюджетирование, ориентированное на результат, программное бюджетирование, цепочка результатов, аллокативная эффективность, бюджетная дисциплина, подотчётность.

Abstract. The article examines the socio-economic foundations of performance-based budgeting (PBB) through public finance theory, principal–agent relationships and the public value approach. The evolution of budget reforms and the 2018 and 2023 OECD survey findings are comparatively analysed. An original conceptual definition is proposed, and ten prerequisites for effective PBB are consolidated into a three-tier institutional framework. The findings inform priorities for Uzbekistan's transition to programme-based budgeting and stronger fiscal accountability.

Keywords: performance-based budgeting, programme budgeting, results chain, allocative efficiency, fiscal discipline, institutional accountability.

Kirish

Davlat moliyasini boshqarishda mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish budjet xarajatlarini nazorat qilish bilan birga ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini baholashni ham talab etadi. O‘zbekistonda 2021-yildan budjet uch yillik o‘rta muddatli parametrlar asosida shakllantirilib, dastlab to‘rtta vazirlik va idora faoliyatiga natijaviylik ko‘rsatkichlari tajriba tariqasida kiritildi. 2022–2023-yillarda esa mazkur ko‘rsatkichlar 37 ta vazirlik va idorani qamrab oldi [1]. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan strategiyada 2030-yilgacha to‘liq dasturiy budjetlashtirishga o‘tish nazarda tutilgan [2].

Biroq natijaviylik ko‘rsatkichlarini shakllantirish ularning budjet qarorlariga real ta’sir ko‘rsatishini anglatmaydi. PEFA metodologiyasi bo‘yicha 2024-yilgi baholashda mazkur axborotni budjet jarayoniga integratsiya qilishdagi kamchiliklar qayd etilgan [3]. Mahalliy tadqiqotlarda NYB asosan rejalashtirish va ijroni takomillashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi [4, 5]. Uning davlat moliyasi

funksiyalari, idoralar rag‘batlari va amal qilishining institutsional shartlari bilan o‘zaro aloqasi esa yetarli tizimlashtirilmagan. Xorijiy tadqiqotlarda islohot samarasi yuzasidan turlicha xulosalar mavjudligi [6, 7] mazkur ilmiy muammoning dolzarbligini kuchaytiradi.

Tadqiqot maqsadi NYBning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va iqtisodiy ta’sir mexanizmini aniqlashtirish, uning an’anaviy budjetlashtirishdan farqlarini asoslash hamda samarali amal qilishining zaruriy shartlarini yaxlit tizimga keltirishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

NYBning nazariy asosi R. Masgreyv tomonidan ta’riflangan davlat moliyasining allokatsion, distributiv va stabilizatsion funksiyalari bilan bog‘liq [8]. Jahon bankining yondashuvida ular umumiy fiskal intizom, allokativ va operatsion samaradorlik vazifalari orqali konkretlashtirilgan [9]. Allokativ samaradorlik resurslarni ustuvor ijtimoiy maqsadlarga muvofiq taqsimlashni, operatsion samaradorlik esa davlat xizmatlarini maqbul xarajatlar bilan ko‘rsatishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan NYB resurslar taqsimotini ular yordamida erishiladigan natijalar bilan bog‘laydigan boshqaruv mexanizmidir.

A. Shik budjet islohotlari rivojini nazorat, boshqaruv va rejalashtirish vazifalarining almashinuvchi ustuvorligi bilan izohlaydi [10]. AQShda 1949-yildagi faoliyatga asoslangan budjet g‘oyasidan so‘ng rejalashtirish–dasturlash–budjetlashtirish (PPBS), maqsadlar bo‘yicha boshqaruv (MBO) va nol asosli budjetlashtirish (ZBB) sinovdan o‘tkazildi. Ushbu modellarning natijalari institutsional sharoitga bog‘liq bo‘lib qoldi [7]. 1980–1990-yillarda yangi davlat menejmenti Yangi Zelandiya, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiyada davlat sektorining natijalar uchun hisobdorligini kuchaytirdi [11]. IHTT Kengashining 2015-yilgi tavsiyasi natijaviylikni baholashni budjet boshqaruvining tarkibiy tamoyili sifatida mustahkamladi [12].

IHTT talqinida NYBning asosiy xususiyati budjet qarorlarida natijadorlik axborotidan tizimli foydalanishdir. Axborotning qarorlarga ta’siri darajasiga ko‘ra taqdimotga asoslangan, natijadorlik axborotiga tayanuvchi, boshqaruvga

yo‘naltirilgan va bevosita bog‘langan shakllar farqlanadi [13]. Birinchi shakl hisobot va oshkoralikka xizmat qilsa, keyingi shakllar natijalarni ustuvorliklarni tanlashga kiritadi; bevosita shaklda esa ajratmalar ko‘rsatkichlarga bog‘lanadi. G. B. Polyak NYBni moliyaviy rejalashtirishning rivojlangan ko‘rinishi [14, 139-b.], M. Yu. Malkina esa mablag‘ oluvchilarning rag‘batlarini o‘zgartiruvchi mexanizm sifatida izohlaydi [15].

NYBning samaradorligi yuzasidan empirik xulosalar ehtiyotkorlikni talab etadi. M. Robinson va J. Brambi uning resurs taqsimotiga ta’sirini tasdiqlovchi dalillar cheklanganini qayd etadi [6]. D. Moynixan natijadorlik axborotidan foydalanish siyosiy va institutsional muhitga bog‘liqligini asoslagan [16], T. Kurristin esa bunday axborotni budjet qarorlariga kiritish mexanizmlarining yetarli emasligiga urg‘u beradi [17]. Demak, NYBning nazariy imkoniyatlari va amaliy natijalaridagi farqlarni uning institutsional shartlarini tadqiq qilmasdan tushuntirish qiyin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat tahlili va konseptual-qiyosiy yondashuvga asoslandi. Axborot bazasini 1959–2025-yillarda e’lon qilingan fundamental ilmiy asarlar, retsenziyalanadigan maqolalar hamda IHTT, XVJ va Jahon banki hujjatlari tashkil etdi. Tarixiy-genetik usul orqali budjet islohotlari evolyutsiyasi, sakkiz mezonli qiyosiy tahlil yordamida budjetlashtirish modellari, tizimli-funksional usul orqali esa NYBning tarkibiy aloqalari o‘rganildi. IHTTning 2018 va 2023-yillardagi so‘rov natijalari [13, 18] tavsifiy tahlil qilindi; zaruriy shartlar manbalardagi omillarni funksional guruhlash asosida tizimlashtirildi. So‘rovlarning markaziy hukumat va respondent mamlakatlar o‘z hisobotlariga tayanishi, shuningdek, sababiy ta’sir baholanmagani tadqiqot cheklovidir.

Tahlil va natijalar

NYBning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

NYBning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati budjetni mablag‘lar sarfi ustidan nazorat vositasidan davlat siyosati natijalarini boshqarish mexanizmiga aylantirishda

namoyon bo‘ladi. M. Murning «jamoat qiymati» konsepsiyasiga ko‘ra, davlat faoliyati jamiyatga yetkazilgan manfaat va xizmatlar sifati bilan baholanadi [19]. Binobarin, NYB xarajatlarni strategik maqsadlarga muvofiqlashtirib, resurslarni ijtimoiy samarasi yuqori dasturlarga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bunda xarajatlarning maqsadga muvofiqligi tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik mezonlari orqali baholanadi [11], hisobdorlik esa jamiyat manfaatlarini ko‘zlash bilan uyg‘unlashadi [12].

NYBning iqtisodiy ta’sirini «prinsipal–agent» nazariyasi orqali tushuntirish mumkin. Parlament va vakolatli moliya organlari resurslarni taqsimlovchi prinsipal, budjet tashkilotlari esa ularni sarflovchi agent hisoblanadi. Agent faoliyat haqida ko‘proq axborotga egaligi sababli axborot asimmetriyasi paydo bo‘ladi. U. Niskanen modelida bu idoralarning ajratmalarni kengaytirishga intilishi bilan izohlanadi [20]. Xarajat smetasi ustuvor tizimda resurs hajmi asosiy mezonga aylansa, NYB moliyalashtirishni o‘lchanadigan natijalar, monitoring va teskari aloqa bilan bog‘lab, idoralar rag‘batlarini o‘zgartiradi. Bu ta’sir ishonchli ko‘rsatkichlar va javobgarlikka bog‘liq.

Yuqoridagi nazariy-uslubiy yondashuvlar va ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishning iqtisodiy mohiyatini yanada kengroq ochib beruvchi quyidagi mualliflik ta’rifini taklif etish maqsadga muvofiq. Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish — davlatning uzoq va o‘rta muddatli strategik maqsadlarini budjet dasturlari, moliyaviy resurslar hamda oldindan belgilangan, miqdoriy va sifat jihatdan baholanadigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bilan o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslangan, budjet mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini natijadorlik mezonlari asosida tartibga soluvchi, monitoring va baholash natijalarini keyingi budjet qarorlariga integratsiyalash orqali fiskal intizom, resurslar taqsimotining samaradorligi, davlat xarajatlarining natijaviyligi hamda institutsional hisobdorlikni

ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks tashkiliy-iqtisodiy va institutsional boshqaruv mexanizmidir.

Mazkur ta’rifning ilmiy-uslubiy jihatdan o‘ziga xosligi shundaki, unda natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish faqat budjet mablag‘larini dasturlar kesimida taqsimlash yoki ularning o‘zlashtirilishini nazorat qilish vositasi sifatida emas, balki strategik rejalashtirish, resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga taqsimlash, budjet dasturlarini amalga oshirish, erishilgan natijalarni monitoring qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash hamda baholash xulosalari asosida moliyalashtirish parametrlarini qayta ko‘rib chiqishni qamrab oluvchi uzluksiz va o‘zaro bog‘liq boshqaruv tizimi sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv budjet xarajatlarini boshqarishda resurslardan foydalanish jarayonining o‘zidan ko‘ra, ularning pirovard ijtimoiy-iqtisodiy natijalariga ustuvor ahamiyat berishni nazarda tutadi.

1-jadval


An’anaviy va natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishning qiyosiy tavsifi

Mezon	An’anaviy budjetlashtirish	Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish
Asosiy savol	Mablag‘ nimaga va qancha sarflandi?	Mablag‘ evaziga qanday natijaga erishildi?
Qaror asosi	O‘tgan davr xarajatlari va moddalar bo‘yicha limitlar	Maqsadlar, dasturlar va natijaviylik ko‘rsatkichlari
Budjet tasnifi	Idoraviy va iqtisodiy (moddaviy) tasnif	Idoraviy va iqtisodiy tasniflar bilan uyg‘unlashgan dasturiy tasnif
Rejalashtirish ufqi	Asosan bir yillik budjet	O‘rta muddatli (3–5 yil) doira, strategik rejalar bilan integratsiya
Axborot asosi	Moliyaviy va hisob-kitob axboroti	Moliyaviy axborot bilan birga natijadorlik axboroti
Javobgarlik	Qoida va limitlarga rioya etilishi	Natijaga erishilganlik, boshqaruv erkinligi bilan uyg‘un javobgarlik
Baholash mezoni	Assignovaniyalarning o‘zlashtirilishi	Maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi va ijtimoiy samara
Idoralar rag‘bati	Xarajatlar hajmini oshirish	Natijaga erishish va samarali boshqaruv

Manba: muallif tomonidan [13, 21, 22] asosida tizimlashtirilgan.

Natijalar zanjiri va budjet sikli

NYBning metodologik asosini «natijalar zanjiri» tashkil etadi: resurslar (input), faoliyat (activity), bevosita mahsulot yoki xizmat (output), oraliq natija (outcome) va pirovard samara (impact) [23]. Ushbu ketma-ketlik xarajatlar bilan jamiyat uchun yuzaga keladigan o‘zgarishlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvning ta’lim tizimidagi ifodasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Natijalar zanjiri va budjet samaradorligining uch o‘lchami

Manba: [11, 23] asosida muallif ishlanmasi.

1-rasmga muvofiq, an’anaviy budjetlashtirish resurslar va bajarilgan ishlarni hisobga olishga yo‘nalsa, NYB davlat xizmatlari mahsuli hamda ijtimoiy natijalarni qaror mezoniga aylantiradi. Budjetni shakllantirishda ko‘rsatkichlar muqobil dasturlarni taqqoslash, tasdiqlashda kutilayotgan natijalarni ajratmalar bilan solishtirish, ijroda esa boshqaruv qarorlarini tuzatish uchun xizmat qiladi. Monitoring va audit xulosalarining keyingi budjet sikliga qaytarilishi tizimda teskari aloqani yuzaga keltiradi. Ijtimoiy natijalar ko‘pincha bir yildan uzoq davrda shakllanishi sababli NYB o‘rta muddatli rejalashtirish bilan uyg‘unlashishi zarur. 2018-yilda IHTT mamlakatlarining 88 foizida o‘rta muddatli xarajatlar doirasi mavjud bo‘lgan [13].

IHTT mamlakatlarida NYB amaliyoti

IHTTning 2023-yilgi so‘rovida qatnashgan 33 mamlakatdan 28 tasida (85 foiz) markaziy hukumat darajasida NYBning kamida bir shakli mavjud. Respondentlarning 14 tasida (42 foiz) natijadorlik axborotiga tayangan model qo‘llangan [18]. Bu ko‘rsatkichlar islohotning keng tarqalganini bildiradi, ammo natijadorlik axborotining real budjet qarorlariga ta’sirini mustaqil isbotlamaydi (2-rasm).



Izoh: ma’lumotlar markaziy hukumat darajasiga tegishli (2023-yil avgust holatiga).

2-rasm. IHTT mamlakatlarida NYBning qo‘llanilishi va natijaviylik axborotidan foydalanish (2023-yil)

Manba: IHTTning [18] ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

NYBni qo‘llaydigan 28 mamlakatda natijadorlik axborotidan yillik resurs taqsimotini asoslashda 71 foiz, parlamentga hisobot taqdim etishda 68 foiz holatda foydalanilgan. Biroq uning parlament qo‘mitalarida muhokamasi 32 foiz, parlament munozaralarida ishlatilishi 29 foizni tashkil etgan [18]. Bu holat natijaviylik axborotini ishlab chiqish bilan uni qarorlarda qo‘llash o‘rtasidagi institutsional tafovutni ko‘rsatadi. 2018-yilgi so‘rovda ajratmalarni ko‘rsatkichlarga bevosita bog‘laydigan model qayd etilmagan [13]. Demak, NYBni avtomatik moliyalashtirish emas, natijadorlikka tayangan qaror qabul qilish tizimi sifatida rivojlantirish asosliroqdir.

NYB amal qilishining zaruriy shartlari

NYBning samaradorligi alohida vositalar mavjudligidan ko‘ra, ular o‘rtasidagi institutsional uyg‘unlikka bog‘liq. M. Robinson va D. Last mazkur mexanizmning eng sodda shakli ham dastlabki shartlarning bajarilishini talab etishini asoslaydi [22]. Tadqiqotda adabiyotlardagi omillar umumlashtirilib, o‘nta zaruriy shart uch darajaga — institutsional poydevor, asosiy amaliy mexanizmlar va tizim barqarorligini qo‘llab-quvvatlovchi omillarga — ajratildi (2-jadval).

2-jadval

NYB amal qilishining zaruriy shartlari tizimi

№	Shart va uning mazmuni	Manba
	I. Poydevor	
1	**Makroiqtisodiy va fiskal barqarorlik.** Bashorat qilinadigan xarajat chegaralari, ishonchli o‘rta muddatli budjet doirasi	[12]
2	**Huquqiy-me’yoriy asos.** Ko‘rsatkichlar, mas’ullar va hisobot tartibining qonunchilikda belgilanishi	[24]
3	**Institutsional va kadrlar salohiyati.** Ko‘rsatkichlar tuzish va tahlil qilish malakasi	[22]
	II. Ustunlar	
4	**Dasturiy budjet tuzilmasi.** Xarajatlarni dasturlar kesimida rejalashtirish va hisobga olish	[25]
5	**Natijaviylik ko‘rsatkichlari.** O‘lchanadigan, soni cheklangan, boshlang‘ich va maqsadli qiymatli ko‘rsatkichlar	[23]
6	**Monitoring va baholash.** Baholash natijalarining budjet qarorlarida qo‘llanilishi	[13, 16]
7	**Hisob va axborot tizimi.** Dasturlar kesimida tezkor va ishonchli g‘aznachilik hisobi	[9]
8	**Boshqaruv erkinligi va javobgarlik.** Resurslardan foydalanishda mustaqillik va natija uchun javob berish	[21]
	III. Qo‘llab-quvvatlovchi omillar	
9	**Shaffoflik va tashqi nazorat.** Budjet hujjatlarining ochiqligi, parlament muhokamasi, mustaqil audit	[12]
10	**Siyosiy iroda va islohotning uzluksizligi.** Dastlabki natijalar past bo‘lsa ham islohotni davom ettirish	[13]

Manba: ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur tizimning nazariy asoslanganligi ayrim empirik izlanishlarda ham tasdiqlanadi. AQSh shtatlarida natijadorlik axborotidan foydalanish va javobgarlik qonunchilikda aniq belgilangan sari NYB mexanizmi izchilroq ishlashi aniqlangan [24]. Dasturiy tasnif natijadorlikka asoslangan qarorlar uchun zarur [25], biroq uning o‘zi monitoring va boshqaruv javobgarligisiz yetarli emas [21]. Taklif etilgan modelda dastlabki uch shart tizimning institutsional poydevorini, keyingi beshtasi uning amaliy faoliyatini, so‘nggi ikkitasi esa shaffoflik va islohot davomiyligini ta’minlaydi. Ularning nisbiy ta’sir kuchi keyingi empirik tadqiqotlarda baholanishi kerak.

Muhokama

NYBning nazariy imkoniyatlari bilan uning amaliy natijalarini farqlash talab etiladi. Nazariy jihatdan u resurslar taqsimoti va davlat xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin; empirik adabiyotlarda esa uning mustaqil ta’siri yuzasidan yakdil xulosa mavjud emas [6]. Bunday tafovut, avvalo, natijadorlik axborotining sifati va uni qaror qabul qilish jarayonida ishlatish shartlariga bog‘liq. IHTT mamlakatlarida axborotdan parlament muhokamalarida cheklangan foydalanilishi T. Kurristin ko‘rsatgan institutsional uzilishning amaliy ifodasidir [17].

NYBga o‘tishda islohotning ketma-ketligi muhim ahamiyat kasb etadi. J. Daymond mavjud moliyaviy boshqaruv salohiyatiga mos bosqichma-bosqich yondashuvni [26], M. Robinson va D. Last esa salohiyati cheklangan mamlakatlarda boshlang‘ich modelni mustahkamlashni tavsiya qiladi [22]. Shunga ko‘ra, avvalo fiskal va huquqiy asoslar hamda kadrlar salohiyati rivojlantirilib, keyinchalik dasturiy tasnif, natija ko‘rsatkichlari va baholash birlashtirilishi lozim. Shaffoflik va siyosiy qo‘llab-quvvatlash esa barcha bosqichlarda uzluksiz ta’minlanishi zarur.

O‘zbekiston tajribasi bu ketma-ketlikning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. O‘rta muddatli rejalashtirish va fiskal qoidalar joriy etilgan, natijaviylik ko‘rsatkichlari 37 ta vazirlik va idoraga tatbiq etilgan, 2025-yilda ikki vazirlik xarajatlari dasturlar asosida shakllantirilgan [1]. Biroq PEFA baholashida natija ko‘rsatkichlarini budjet qarorlariga bog‘lash va idoralarning dastur ishlab chiqish

salohiyati bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlangan [3]. 2025–2030-yillar strategiyasida majburiy o‘rta muddatli xarajat chegaralari hamda dasturiy metodologiyani takomillashtirish ko‘zda tutilgan [2]. Shu sababli baholash natijalarini resurslarni taqsimlashda qo‘llash va parlament nazoratining daliliy asosini kuchaytirish ustuvor ahamiyatga ega.

Tadqiqotda aniqlangan o‘nta shartning O‘zbekistondagi bajarilish darajasi miqdoriy baholanmagan hamda ularning budjet natijadorligiga sababiy ta’siri tekshirilmagan. Keyingi izlanishlarda vazirliklar kesimida tegishli indikatorlar bazasini shakllantirib, ularning budjet dasturlari samaradorligiga ta’sirini empirik baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa

Birinchidan, NYB budjetni moliyaviy nazorat vositasidan strategik natijalarni boshqarish mexanizmiga aylantiradi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati davlat resurslarini jamoat qiymati va o‘lchanadigan natijalar bilan bog‘lash, fiskal intizomni allokativ hamda operatsion samaradorlik bilan uyg‘unlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, NYB «prinsipal–agent» munosabatlaridagi axborot asimmetriyasini qisqartirish va budjet tashkilotlari rag‘batlarini natijalar bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Ishonchli monitoring va institutsional javobgarlik bo‘lmasa, ko‘rsatkichlarning mavjudligi xarajatlar samaradorligini kafolatlamaydi.

Uchinchidan, IHTTning 2023-yilgi so‘rovida mamlakatlarning 85 foizi NYB shakllarini qo‘llagani aniqlansa-da, uni joriy etgan davlatlarda natijadorlik axborotidan parlament muhokamalarida foydalanish 29–32 foiz darajasida qolgan [18]. Demak, islohot samarasi ko‘rsatkichlar soni emas, ularning budjet qarorlariga amaliy ta’siri bilan belgilanadi.

To‘rtinchidan, NYB faoliyatining o‘nta zaruriy sharti institutsional poydevor, amaliy mexanizmlar va qo‘llab-quvvatlovchi omillardan iborat uch pog‘onali modelda tizimlashtirildi. O‘zbekistonda 2030-yilgacha dasturiy budjetlashtirishga o‘tish kadrlar hamda axborot salohiyatini mustahkamlash, mustaqil baholashni

rivojlantirish va natijadorlik axborotini budjet qarorlariga integratsiya qilishni talab etadi. Modelni keyinchalik empirik indikatorlar bilan tekshirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekistan: PFM Reforms (presentation). – PEMPAL, 2025. – URL: https://www.pempal.org/sites/default/files/2025-10/2.%20Uzbekistan.%20PFM%20Reforms.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/7469803

3. PEFA. Uzbekistan 2024: Public Financial Management Performance Report. – Washington, DC: PEFA Secretariat, 2024. – URL: https://www.pefa.org/node/5298

4. Ахмедова Г. Натижавийликка йўналтирилган бюджетлаштириш ўрта муддатли режалаштиришнинг муҳим тармоқлари // Молия. – 2010. – № 1. – Б. 26–29.

5. Исломқулов А. Натижавийликка йўналтирилган бюджетлаштириш тизимига ўтиш орқали бюджет жараёнини такомиллаштириш // Молия. – 2010. – № 2. – Б. 4–12.

6. Robinson M., Brumby J. Does Performance Budgeting Work? An Analytical Review of the Empirical Literature. – IMF Working Paper WP/05/210. – Washington, DC: IMF, 2005.

7. Schick A. The Metamorphoses of Performance Budgeting // OECD Journal on Budgeting. – 2014. – Vol. 13, No. 2. – P. 49–79.

8. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959.

9. World Bank. Public Expenditure Management Handbook. – Washington, DC: World Bank, 1998.

10. Schick A. The Road to PPB: The Stages of Budget Reform // Public Administration Review. – 1966. – Vol. 26, No. 4. – P. 243–258.

11. Pollitt C., Bouckaert G. Public Management Reform: A Comparative Analysis – Into the Age of Austerity. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2017.

12. OECD. Recommendation of the Council on Budgetary Governance. – Paris: OECD, 2015.

13. OECD. OECD Good Practices for Performance Budgeting. – Paris: OECD Publishing, 2019.

14. Финансы / под ред. Г.Б. Поляка. – 3-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.

15. Малкина М.Ю. Эволюция институтов бюджетной системы в современной России // Журнал институциональных исследований. – 2010. – Т. 2, № 3. – С. 66–74.

16. Moynihan D.P. The Dynamics of Performance Management: Constructing Information and Reform. – Washington, DC: Georgetown University Press, 2008.

17. Curristine T. Performance Information in the Budget Process: Results of the OECD 2005 Questionnaire // OECD Journal on Budgeting. – 2005. – Vol. 5, No. 2. – P. 87–131.